

ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2025 Vol. 3

**tsuull.uz
goldenscripts.tsuull.uz**

ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2025 Vol. 3

tsuull.uz

goldenscripts.tsuull.uz

MUNDARIJA

MATNSHUNOSLIK

Otabek Jo'raboyev Navoiy kulliyoti Qo'qon nusxasining talqiniy tavsifi	4
Shermuhammad Amonov Ahmad Tabibiy lirikasi tadqiqida matn tarixining o'rni	17
Zilola Shukurova Qo'qon bayozchilik maktabi va unga xos an'analar	42
Sherzod Qodirov Herman Vamberining "Cagataische sprachstudien" xrestomatiyasidagi Alisher Navoiy g'azallari sharhi	66

ADABIYOTSHUNOSLIK

Nurboy Jabborov "Tarixi anbiyo va hukamo"ning islomiy-irfoniy mohiyati	82
--	----

TILSHUNOSLIK

Dr. Muhterem Saygin Klasik Türk Edebiyatının Doğu Sahasında Sevgili için Kullanılan Bir İfade Körke Bay (Körkke Bay, Gorge Bay)	100
Altay Noorullah Navoiy asarlarida tinish belgilarining yanglish ishlatilishi	113
Farhad Rahimi Nezrali'nin Çağatay Türkçesi Sözlüğünün Yanlısları Üzerine II	130

BOSH MUHARRIR

Shuhrat Sirojiddinov

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI

Karomat Mullaxo'jayeva

MAS'UL KOTIB

Ozoda Tojiboyeva

TAHRIR HAY'ATI

Karl Rayxl (Germaniya)
Isa Habibeyli (Ozarbayjon)
Seyhan Tanju (Turkiya)
Almaz Ulvi (Ozarbayjon)
Benedek Peri (Vengriya)
Vahit Turk (Turkiya)
Teymur Kerimli (Ozarbayjon)
Eunkyung Oh (Koreya)
Nazef Shahrani (AQSh)
Boqijon To'xliyev
Muhammadjon Imomnazarov
Bilol Yujel (Turkiya)
Qosimjon Sodiqov
Zulxumor Xolmanova
Mustafa O'ner (Turkiya)
Nurboy Jabborov
G'aybulla Boboyorov
Kimura Satoru (Yaponiya)
Imran Ay (Turkiya)
Aftondil Erkinov
Nadir Mamadli (Ozarbayjon)
Rashid Zohidov
Otabek Jo'raboyev
Bulent Bayram (Turkiya)
Qo'ldosh Pardayev
Nodirbek Jo'raqo'ziyev
Oysara Madaliyeva
Hilola Nazirova

EDITOR IN CHIEF

Shuhrat Sirojiddinov

DEPUTY EDITOR IN CHIEF

Karomat Mullakhojaeva

EXECUTIVE SECRETARY

Ozoda Tojibaeva

EDITORIAL BOARD

Karl Rechl (Germany)

Isa Habibbeyli (Azerbaijan)

Seyhan Tanju (Turkey)

Almaz Ulvi (Azerbaijan)

Benedek Peri (Hungary)

Vahit Turk (Turkey)

Teymur Kerimli (Azerbaijan)

Eunkyung Oh (Korea)

Nazif Shahrani (USA)

Bakijan Tukhliev

Mukhammadjan Imomnazarov

Bilol Yujel (Turkey)

Kasimjan Sadikov

Zulkhumor Kholmanova

Mustafa O'ner (Turkey)

Nurboy Jabborov

Gaybullah Babayarov

Kimura Satoru (Japan)

Imran Ay (Turkey)

Aftandil Erkinov

Nadir Mamadli (Azerbaijan)

Rashid Zahidov

Atabek Juraboev

Bulent Bayram (Turkey)

Kuldosh Pardaev

Nodirbek Jurakuziev

Oysara Madalieva

Hilola Nazirova

CONTENTS**TEXTOLOGY****Otabek Juraboev**

An Explanatory Description of the Kokand Copy of the Kulliyat of Navo'i 4

Shermuhammad Amonov

The role of Textual History in the Study of Ahmad Tabibi's Lyrics 17

Zilola ShukurovaThe Kokand Tradition of *Bayaz* Manuscript Compilation and its Distinctive Features 42**Sherzod Qodirov**

A Review of Alisher Navai's Ghazals in Herman Vámbéry's "Cagataische Sprachstudien" Chrestomathy 66

LITERATURE**Nurboy Jabborov**

The Islamic and Irfanic Essence of "Tarixi anbiyo and hukamo" 82

LINGUISTICS**Dr. Muhterem Saygin**

An Expression Used for Beloved in the Eastern Field of Classical Turkish Literature: Körke Bay (Körkke Bay, Görgö Bay) .100

Altay Noorullah

Incorrect use of Punctuation Marks in Navoi's Works 113

Farhad Rahimi

On the Mistakes of Nezrali's Chagatai Turkish Dictionary II 130

Herman Vamberining “Cagataische sprachstudien” xrestomatiyasidagi Alisher Navoiy g‘azallari sharhi

Sherzod Qodirov¹

Abstrakt

Ushbu maqolada sharqshunoslik tarixida muhim o‘rin tutgan Herman Vamberining “Cagataische Sprachstudien” nomli asarining xrestomatiya bo‘limida keltirilgan Alisher Navoiy g‘azallari matni va tarjimalari tahlil qilindi. Tadqiqotda Vamberining g‘azallarni chig‘atoy tilida berish uslubi, ularning nemis tiliga tarjimasi, poetik ifoda va mazmuniy tafovutlar ilmiy jihatdan o‘rganildi. Asosiy e‘tibor tarjimalardagi semantik siljishlar, poetik strukturaning buzilishi yoki saqlanishi masalasiga qaratildi. Shu bilan birga, Vamberi xrestomatiyasidagi matnlar, Navoiy devonlarining turli nashrlari bilan qiyoslanib, farqlar aniqlandi va muallif tahriri masalasiga doir aniq dalillar taqdim etildi.

Kalit so‘zlar: *g‘azal, tarjima, xrestomatiya, poetika, semantika, sharqshunoslik, nemis tilidagi izohlar, matnshunoslik.*

Kirish

Alisher Navoiyning ulkan ijodiy merosi nafaqat o‘zbek olimlari uchun, balki jahon adabiyotshunoslari uchun ham muhim, qiziqarli manba hisoblangan. Xususan, Yevropa adabiyotshunoslari ichida nemis olimlari o‘zlarining Navoiy ijodiga bo‘lgan qiziqishlari tufayli olib borgan ilmiy tadqiqotlari bilan ajralib turadilar. Jumladan, H.Vamberi, M.Xartman, I. Baldauf, Z.Klaynmixel, K. Menges va boshqa ko‘plab olimlar Alisher Navoiy ijodini o‘rganganlar, asarlarini nemis tiliga tarjima qilib, o‘z tillarida Navoiy asarlarining lug‘atlarini tuzishgan. Ulardan biri – Yevropaning mashhur sharqshunosi Hermann Vamberi bo‘lib, u 1832 – 1913-yillarda yashab ijod qilgan. Uning ilmiy faoliyati turkologiya, etnografiya va tarix, tilshunoslik sohalarida muhim iz qoldirgan. Vamberi turkiy tillarning, xususan, chig‘atoy tilining o‘rganilishi va G‘arb ilmiy muhitida tanitilishida katta hissa qo‘shgan. U Markaziy Osiyo xalqlari

¹ Qodirov Sherzod – tayanch doktorant, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-mail: kadirov1007@mail.ru

ORCID ID: 0009-0006-4523-7142

Iqtibos uchun: Qodirov, Sh. 2025. “Herman Vamberining “Cagataische sprachstudien” xrestomatiyasidagi Alisher Navoiy g‘azallari sharhi”. *Oltin bitiglar* 3: 66 – 81.

madaniyati, tili va adabiyoti bilan yaqindan tanish bo'lgan, ko'plab safar va ilmiy kuzatuvlar asosida asarlar yaratgan. Ulardan biri, 1867-yilda Leypsigda nashr etilgan "Cagataische Sprachstudien" (Chig'atoy tilshunosligi tadqiqotlari) asari bo'lib, bu asar chig'atoy tilining fonetikasi, morfologiyasi va sintaksisiga doir qisqacha grammatika, chig'atoycha-nemischa lug'at hamda uchinchi bo'limi – xrestomatiyadan iborat. Xrestomatiya bo'limida Vamberi Alisher Navoiyga tegishli nasriy va nazmiy asarlardan parchalarni o'z ichiga olgan: "Mahbub ul-qulub"dan bir bo'lim, uchta g'azal va "Farhod va Shirin" dostonidan 75 bayt keltirgan [Vambery 1867]. Vamberining mazkur asari bir necha o'zbek olimlari tomonidan o'rganilgan. Olim Bahodir Karimov mazkur asarni to'liq yoritgan bo'lsa [Karimov 2021], V. Davirova esa mazkur asarga kiritilgan maqollarni tahlil qilgan [Davirova 2025]. A.Roviyajon [Abdullayeva 2007], O.Tojiboyeva [Tojiboyeva 2023] kabi adabiyotshunoslar maqolalarida ham mazkur asarning qisqacha tahlili keltirilgan. Ushbu tadqiqotda ana shu xrestomatiyada keltirilgan Navoiy qalamiga mansub uch g'azalning nemis tiliga tarjimasini tahlil qilishni bosh maqsad qilib olingan.

Tahlil jarayonida Vambery xrestomatiyasida chig'atoy tilida keltirilgan matnlarning Navoiy devonlari bilan qiyosiy tahlili, g'azallar tarkibidagi baytlar soni va tartibidagi tafovutlar, shuningdek, ayrim leksik shakllar va ifodalar bilan bog'liq o'zgarishlarga e'tibor qaratildi. Tahlillarga ko'ra, Vamberi tomonidan tuzilgan tarjimalar, asosan, nasriy bo'lib, ular asliyatdagi poetik tizim, qofiya, radif va tuzilmani yetarlicha aks ettirmaydi [Vambery 1867].

Ushbu tadqiqotga tarixiy-qiyosiy metod, structural-semantik tahlil asos sifatida tanlangan. Asosiy manbalar "Badoye' ul-bidoya" va "G'aroyib us-sig'ar" devonlari, shuningdek, zamonaviy navoiyshunoslik tadqiqotlari xizmat qiladi.

"Cagataische Sprachstudien"da berilgan g'azallar tajimasi, sharhi

Hermann Vamberining "Cagataische Sprachstudien" asarining uchinchi qismida (Chrestomathy) berilgan g'azallardan biri – Alisher Navoiy qalamiga mansub, "G'aroyib us-sig'ar" devonining 603-g'azali bo'lib, u 624-sahifada joylashgan. G'azal oshiqona mazmunda. Vamberi mazkur g'azalni arab yozuvida chig'atoycha matn sifatida keltiradi va unga nemis tilida soddalashtirilgan, lekin poetik ifodadan ancha yiroqlashgan tarjima ilova qiladi. G'azal

quyidagi bayt bilan boshlanadi:

*Ey ko'ngul, kelkim, ikov bo'lub nigore ko'zlali,
Sarv qadde istabon, siymin uzore ko'zlali*

[G'aroyib us-sig'ar, 603-g'azal].

Vamberi bu baytni quyidagicha tarjima qiladi:

*O, Herz, komm, lass uns vereint ein Liebchen aussuchen,
Lass uns die Cypressenwuchsige, die Silberwangige aufsuchen*

[Vambery].

Tarjimada "sarv qadde" iborasi "die Cypressenwuchsige" (sarvdek qomatli) deb aniq ifodalangan, "siymin uzor" esa "die Silberwangige" (kumush yuzli) sifatida tarjima qilingan. Bunda Vamberi Sharq adabiyotidagi tashbeh usulini tushunganini ko'rish mumkin. Biroq "ko'ngul" so'zini "Herz" (yurak) deb tarjima qilishi, g'azalning tasavvufiy-falsafiy konnotatsiyasini soddalashtiradi.

Ikkinchi baytda Navoiy shunday deydi:

*Yorlig' ko'z tutqonimiz ko'zladi chun o'zga yor,
Bizda ham ko'z bor, borib bir o'zga yori ko'zlali.*

Tarjima:

*Da unsres Auges Theure ein Andrer hat erspäht,
Auch wir haben Augen, drum wollen auch wir eine Andere
aufsuchen.*

Bu baytda poetik kinoya mavjud: sevgilimiz boshqasini tanladi, endi biz ham o'zimizga boshqasini topamiz. Vamberi ushbu fikrni deyarli so'zma-so'z tarjima qilgan, biroq poetik ritm va qofiya yo'qolgan.

Uchinchi baytda:

*Chun g'ubori markidin ravshan aylar el ko'zin,
Tilmurub turg'uncha borib, shaxsuvore ko'zlali.*

Vamberi tarjimasi:

*Sie erfreut nur mit des Todes Staub der Menschen Blick,
Wozu sehnsuchtsvoll dastehn? So lass uns eine andere Schöne
ansuchen.*

Bu yerda "g'ubori markab" – "safar yo'lidagi chang" timsol sifatida ishlatilgan. Nemis tilida bu "des Todes Staub" (o'limning changi) deb berilgan, bu esa ma'noni og'irlashtirib yuboradi. "Shaxsuvore" – "qahramonona, go'zal zot" sifatida tarjimada "Schöne" deb soddalashtirilgan.

Qo'lyozma matni bilan devon matni orasida ba'zi tafovutlar mavjud:

- "o'zga" va "yerda" so'zlarining farqi (2-baytda).
- "markidin" va "markabidan" varianti (3-baytda).
- "sanningdek" va "aningdek" (4-bayt boshlanishi).
- "nopaydo" va "foйда" so'zlarining almashtirilishi (5-bayt).

Ushbu farqlar shuni ko'rsatadiki, Vamberi foydalanayotgan matn har doim devon matni bilan bir xil emas va ehtimol muayyan variantlardan, turli nusxalardan olingan bo'lishi mumkin. Bu esa matnshunoslik nuqtayi nazaridan muhim masala.

Yakunda Vamberi tarjimalarida Navoiy g'azalining umumiy mazmuni asosan saqlanadi, biroq poetik qofiya tizimi va so'zlar orasidagi badiiy aloqalar soddalashtiriladi yoki yo'qoladi. Bu holat Vamberining filologik va leksik sodiqlikni ko'zlagani, lekin poetik tarjima qilishni maqsad qilmaganini ko'rsatadi. Alisher Navoiyga oid g'azalning qo'lyozmadagi shakli (Vamberi tomonidan "Cagataische Sprachstudien" xrestomatiyasida e'lon qilingan) va rasmiy devon matni ("G'aroyib us-sig'ar") orasida bir nechta sezilarli tahririy va leksik tafovutlar mavjud. Quyida ushbu farqlar tizimli ravishda ko'rib chiqiladi:

I. 2-bayt, 2-misra

Devon matni: *Borib bir **yerda** yori ko'zlali.*

Qo'lyozma matni: *Borib bir **o'zga** yori ko'zlali.*

Izoh: Bu farq ma'nodagi siljishni bildiradi. "Yor"ning faqat joyi (yerda) emas, balki butunlay boshqa shaxs (o'zga) bo'lishi – ma'naviy ajralish va yangidan izlash motivini kuchaytiradi. Qo'lyozma variantida norozilik ohangi kuchliroq.

II. 3-bayt, 1-misra

Devon matni: *Chun g'ubori **markabidin** ravshan aylar el ko'zin.*

Qo'lyozma matni: *Chun g'ubori **markidin** ravshan aylar el ko'zin.*

Izoh: "Markabidan" (ya'ni: minilgan hayvon changidan) bilan "markidin" (ya'ni: yo'l bosib o'tilgan yo'ldan) so'zlari fonetik jihatdan yaqin, lekin semantik jihatdan nozik tafovutga ega. Bu o'zgarish devon matnining hayotiy tasvirini (biror jonzo'tning harakati) umumlashtirilgan holatga o'tkazadi.

III. 4-bayt, 1-misra

Devon matni: *Gar **aningdek** sho'x shahr-oshub ofat topmasak.*

Qo'lyozma matni: *Gar **sanningdek** sho'x shahr-oshub ofat topmasak.*

Izoh: “Aningdek” – uchinchi shaxs (u kabi); “Saningdek” – ikkinchi shaxs (sen kabi).

Qo'lyozmada bevosita murojaat mavjud, devonda esa ko'proq nazoratli kuzatuv pozitsiyasi mavjud.

IV. 5-bayt, 1-misra

Devon matni: *Garchi **nopaydo** erur maqsud, armon qolmasun.*

Qo'lyozma matni: *Garchi **foyda** erur maqsud, armon qolmasun.*

Izoh: “Nopaydo” – ko'rinmas, anglash qiyin; “Foyda” – mavjud ijobiy natija.

Ma'nodagi bu qarama-qarshilik konnotatsion og'ishlarni keltirib chiqaradi. Vamberi foyda (ma'naviy yutuq) degan talqinni tanlagan, holbuki devon matni maqsadni mavhum va erishib bo'lmaydigan deb ta'riflaydi.

V. 6-bayt, 2-misra

Devon matni: *Xos om ichida **bular** qila olg'oncha bore ko'zlali.*

Qo'lyozma matni: *Xos om ichida qila olg'oncha bore ko'zlali.*

Izoh: “Bular” so'zining tushib qolishi grammatik va uslubiy jihatdan muhim. Bu zamir yordamida umumiy shaxslar yoki ilgari tilga olingan obrazlar nazarda tutilgan. Qo'lyozmada tushirib qoldirilishi, ehtimol, xat tashlash yoki matnni soddalashtirish natijasi bo'lishi mumkin. Mazkur farqlar faqat grafematik emas, balki semantik, uslubiy va ba'zan poetik konstruksiyani ham o'zgartiradi. Vamberining ishlatgan matni birlamchi emas, balki mavjud nusxalarning tahririy variantlaridan biri bo'lishi mumkin. Shuningdek, bu farqlar orqali Navoiyning matnshunoslik jihatidan tadqiq etilishi zarurligini yana bir bor ko'rsatadi.

Alisher Navoiy ijodi turkiy she'riyatning shakliy, mazmuniy va falsafiy taraqqiyotida tub burilish yasagan bosqich sifatida qaraladi. Ayniqsa, lirik she'riyatda, g'azal janrida, u ilgari mavjud bo'lgan passiv oshiq obrazidan tubdan voz kechib, faol, jasoratli va izlovchi oshiq timsolini yaratdi. Bu tendensiya, shuningdek, Vamberi tomonidan xrestomatiyaga kiritilgan mazkur g'azalda ham o'z aksini topgan.

G'azalning ikkinchi baytida shoir shunday deydi:

Yorlig' ko'z tutqonimiz ko'zladi chun o'zga yor,

Bizda ham ko'z bor, borib bir o'zga yori ko'zlali.

Bu bayt orqali oshiq obrazida ilgari tasvir etilgan sadoqatli, lekin jim va istaksiz oshiq emas, balki ma'shuqadan e'tibor kutuvchi oshiq ifodalanadi. Bu o'zgarish faqat obrazda emas, balki poetik tilda, tashbeh va badiiy vositalarni qo'llashda ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Navoiy lirikasida har bir badiiy vosita, har bir san'at

unsuri faqat tashqi bezak sifatida emas, balki mazmunni aniqlashtiruvchi poetik signal sifatida xizmat qiladi. Shoir oshiq holatini ifodalashda doim ham odatiy san'atlarni qo'llamaydi, balki mazmun va holatdan kelib chiqqan holda yangi shakl va uslubni tanlaydi.

Vamberi tomonidan berilgan nemischa tarjimada mazmun asosan saqlanadi, biroq oshiqning faol, o'z qadrini biluvchi tabiati soddalashtirilgan tarjimada to'liq ochilmaydi. Bu esa g'azal tarjimasini va uning G'arb o'quvchisi uchun idrok etilishida ma'lum semantik yo'qotishlarga olib kelgan. Shuningdek, Navoiy uchun badiiy san'atlar hech qachon shunchaki so'z o'yini emas, balki ijtimoiy-estetik fikrning badiiy shakldagi ifodasi bo'lib xizmat qilgan. Bular mazmun bilan shakl uyg'unlashgan, har bir san'atning ichki zaruratga asoslangan mukammal namunalardir. U poetik san'atlar vositasida ma'no qatlamlarini chuqurlashtirgan, oshiq-ma'shuqa munosabatining soddalashtirilgan tasviridan voz kechib, falsafiy tushunchalar bilan boyitgan.

Demak, Vamberining "Cagataische Sprachstudien" xrestomatiyasidagi mazkur g'azal Navoiy ijodining estetik yangiligi, obrazlar sistemasi, poetik dinamizmi va mazmunni ochishga xizmat qiluvchi badiiy vositalar uyg'unligi orqali muhim bir misol sifatida e'tiborga loyiqdir.

Navoiy g'azaliyotining badiiy ustunliklaridan biri – bu obrazlar tizimi va ichki poetik struktura orqali tuzilgan kompozitsion yaxlitlikdir. Mazkur g'azalda ham bu holat "inkor – tasdiq" tamoyiliga asoslangan. G'azalning ilk baytlarida oshiq mavjud mahbubaga nisbatan e'tiroz bildiradi, hatto uni tark etishga da'vat qiladi. Bu inkor ifodasi ayniqsa quyidagi baytda yaqqol ko'zga tashlanadi:

*Yorlig' ko'z tutqonimiz ko'zladi chun o'zga yor,
Bizda ham ko'z bor, borib bir yerda yore ko'zlali.*

Bu misralarda lirik qahramonning noroziligi va mahbubaning xiyonatiga yoki bepisandligiga javob tarzida boshqa yor izlash istagi ifodalanadi. Biroq g'azalning maqta' baytida bu pozitsiya keskin o'zgaradi:

*Ey Navoiy, bo'lmag'ung andin bular birla xalos,
Kelki, ham vaslin tilab sabru qarore ko'zlali.*

Ya'ni, bir qarashda rad etilayotgan yor – g'azal yakunida yana sadoqat va muhabbat obyekti sifatida qabul qilinadi. Taniqli adabiyotshunos Najmiddin Komilov bunday g'azallarni parokanda deb baholashga qarshi chiqadi va ularning ichki tuzilmasida

bevosita yoki bilvosita bog'liqlik mavjudligini ta'kidlaydi. Olimning fikricha: "To'g'risini aytganda, men 'parokanda' istilohini she'rga nisbatan qo'llashga qarshiman. Chunki, parokandalik badiiy asarga xos xususiyat emas... Baytlar yuzaki qaraganda mazmungan bog'lanmagan bo'lib tuyulsa-da, botinan ular aloqador [Komilov 2016]".

Komilov bu kabi g'azallarni aynan "inkor – tasdiq" usulida yozilgan she'rlar sifatida baholaydi. Darhaqiqat, Navoiy tomonidan yaratilgan ushbu g'azalda ham baytlar o'zaro to'g'ridan-to'g'ri musalsal bog'liqlikda emasdek tuyuladi, biroq ular ichki psixologik oqim, lirik subyektning ruhiy kechinmalari orqali bir-biriga uzviy bog'langan. Mazkur kompozitsion tuzilma g'azalga ichki dinamikani, dramatismni olib kiradi. Avvaliga, beqarorlik, e'tiroz, alam va norozilik bildiriladi, oxirida esa tavba, sabr, sadoqat va muhabbatni qadrlash kabi ijobiy nuqtaga olib kelinadi. Bu o'zgarishlar shunchaki shoirona hissiyot emas, balki inson qalbining murakkab va ziddiyatli holatlarini aks ettiruvchi psixologik yondashuvdir.

Shuningdek, "inkor – tasdiq" san'atining bunday poetik ishlanmasi nafaqat mantiqiy tuzilma, balki estetik zavq bag'ishlovchi xalqona ohang, badiiy hazil va lirik dramatism orqali ham o'quvchiga ta'sir ko'rsatadi. Bunday g'azallar, Komilov ta'kidlaganidek, har bir baytning "goh boladek arazli, goh qahrlik, goh iztirobli" ohanglar bilan yuritilishi sababli o'ziga xos badiiy kuchga ega. Demak, Vamberi tomonidan tanlab kiritilgan ushbu g'azal nafaqat fonetik, leksik, poetik jihatdan, balki kompozitsion strukturasi orqali ham Alisher Navoiyning novator shoir sifatidagi ijodiy qudratini tasdiqlaydi.

Vamberi tomonidan Alisher Navoiyning ikkinchi g'azaliga taqdim etilgan tarjima umumiy ma'noni uzatishda aniqlikka intilgan bo'lsa-da, g'azalning poetik ohangi, tasavvufiy mazmuni va badiiy vositalar tizimi soddalashtirilgan. Tarjimalar asosan nasriy, tushuntiruvchi ohangda bo'lib, poetik yuksaklik, ritmik muvofiqlik va his-tuyg'ularning kuchli ta'siri sezilmaydi.

1-bayt:

*O dich zu loben ist, trotz aller Beredsamkeit, ganz unmöglich,
So auch, mit grösster Ergebung, unmöglich sich zu nähern dir.*

Vamberi bu yerda "faşoħat bilan sanga hamd" va "toat bilan yaqinlashish" g'oyalarini aniq, lekin haddan tashqari soddalashtirib, faqat mumkin emasligi (unmöglich) orqali ifodalagan. Bu esa asldagi iltijo, istak, va falsafiy tan olish ohangini yetkazmaydi. "Ganz unmöglich" iborasi ikki misrada ham takrorlanishi g'azalning tasavvufiy zaminini haddan ortiq literalizatsiya qiladi.

2-bayt:

*Mit Wundersinn und Phantasie dich zu finden,
Mit Scharfsinn ist es doch unmöglich zu nahen dir.*

"Wundersinn" (ajoyib tuyg'u) va "Phantasie" (fantaziya) so'zlari asldagi "fikr-u ta'hiyl" (fikr va tasavvur) ma'nosini qisman uzatadi, lekin tasavvufiy tafakkur va aqlning o'jizligi haqidagi chuqur falsafiy g'oya yetarlicha ochilmaydi. "Scharfsinn" (ziyraklik) orqali "farosat" so'zining ma'nosi berilgan bo'lsa-da, u poetik ifoda emas, tushuntiruvchi ohangda qolgan.

3-bayt:

*Das vollkommenste der Geschöpfe steht kraftlos dir gegenüber.
Trotz aller Eloquenz kann genügendes Lob sagen Niemand dir.*

"Das vollkommenste der Geschöpfe" (mavjudotning eng mukammali) – bu ibora yaxshi talqin, ammo g'azaldagi "zubbayi koinot" (koinotning najotkori) obrazining tasavvufiy tafsirini to'liq qamrab olmaydi. "Niemand dir" (hech kim seni madh eta olmaydi) degan jumla asldagi "balog'at bilan ham yetishib bo'lmaydi" degan ma'noviy qatlamga sodda prozaik javob sifatida qoladi.

4–7-baytlar:

Bu baytlar ketma-ket tarzda insonga xos o'jizlik, gunoh, tazarru va nadomat kabi diniy-ruhiy holatlarni bayon qiladi. Vamberi bu fikrlarni to'g'ri tushunib tarjima qilgan, biroq har bir misraning emotsional kuchi, ritmik tuzilmasi, va ilohiyga shikoyat ohangi soddalashtirilgan shaklda berilgan. Masalan:

"Da nur du allein bist mein Hort, was soll ich beginnen"

Bu misrada "panoh" va "yo'l yo'q" degan obrazlar prozaik qilib berilgan. Aslida, bu umidsizlik ichidagi iltijo bo'lishi kerak edi.

8-bayt (maqta'):

*Nevai hat der Sünden viele, doch erröthet er nicht,
Dich aufsuchend, mit so vieler Scham, zu gelangen zu dir.*

Bu bayt tarjimada eng yaxshilaridan biri bo'lib, "xijolat" ("erröthet er nicht"), "gunoh" ("Sünden viele") va "senga yetmoq" ("zu gelangen zu dir") kabi iboralar orqali asosiy mazmun uzatilgan. Biroq asl baytdagi ko'z yosh, tavba va halollik ohangi, poetik xijolat va iltijoning stilistik kuchi, nemischa tarjimada yanada izchil poetik vosita bilan boyitilishi mumkin edi. Vamberining tarjimalari filologik va didaktik maqsadga xizmat qiladi. Ularning asosiy vazifasi Navoiyning g'azallarini nemis tilida ilmiy auditoriyaga tushunarli qilish bo'lgan. Shu sababli u semantik xususiyatni saqlashga harakat

qilgan bo'lsa-da, poetik qismidan voz kechgan. Tarjimalarda qofiya, vazn, metafora, tajnis, tasviriy vositalar yo'qolgan, bu esa g'azalning asl badiiy qiymatini G'arb o'quvchisi uchun to'liq yetkazishga imkon bermagan. Biroq, Vamberining bu sa'y-harakatlari turkiy adabiyotni G'arb filologiyasi doirasiga olib kirishda tarixiy jihatdan nihoyatda muhim bosqich bo'lib qoladi. Ayniqsa, tarjimalar orqali G'arb sharqshunosligining lingvistik tahlil asoslarini yaratgan.

Mazkur g'azal Navoiyning "Badoye' ul-bidoya" devonidan olingan bo'lib, 10 bayt (20 misra)dan iborat. Biroq Hermann Vamberining "Cagataische Sprachstudien" xrestomatiyasida ushbu g'azalning faqat 8 bayti (16 misrasi) e'lon qilingan. Bu esa Vamberining ishlatgan nusxasi devoniy matnning to'liq versiyasi bo'lmaganidan dalolat beradi. Ayniqsa, 4- va 9-baytlar Vamberi tomonidan keltirilmagan. Ularning mazmuni quyidagicha:

Tushirib qoldirilgan 4-bayt (devonda mavjud, Vamberida yo'q):

*Izhorij az bizdin adab tarkidur base,
Yuz ming qusuru nuqsu kasofat bila sanga.*

Bu baytda kamtarinlik va ojizlikni izhor qilishning o'zi kifoya, degan tasavvufiy g'oya ilgari surilgan. Vamberi bu baytni tushirib qoldirgan bo'lsa, ehtimol u mazmunga ortiqcha takror deb qaragan yoki qo'lidagi nusxada bu bayt mavjud bo'lmagan.

Tushirib qoldirilgan 9-bayt (devonda bor, Vamberida yo'q):

*Chun sendin o'zga yo'q panohim, qochmayin netay
Jurmu gunohdin ohu nadomat bila sanga?*

Bu bayt pushaymonlik, tavba, Panohga yuzlanish motivlari bilan g'azalning ruhiy dinamikasini kuchaytiradi. Bu baytning chiqarilishi natijasida maqta' baytidagi "xijolat bilan sanga" misrasi oldindan yetarlicha tayyorlanmay qoladi, ya'ni poetik kompozitsiya kuchsizlanadi.

Leksik-fonetik tafovutlar

Navoiy devoni matnidan va Vamberi xrestomatiyasidagi matndan quyidagi muhim farqlar aniqlandi:

Misra (bayt)	Devon matni	Vamberi nusxasi	Farq mazmuni
1-bayt, 1-misra	Ey hamd o'lub mahol fashohat bila sanga	Ey hamd ulub tahall fashohat bilan sanga	"mahol" (imkon yo'q) → "tahall" (jo'zibalik) — semantik siljish

2-bayt, 2-misra	Yetmak mahol aql-u farosat bila sanga	Yetmal hol aql faro- sat bilan sanga	"mahol" → "hol" o'zgar- ishi — kuchli semantik yo'qotish
6-bayt, 1-misra	Lutfing rafiqim o'lmasa , ne hadki yetkamen	Lutfing rafiqim ol- masa , ne had ki yan- gay men	"yetkamen" → "yangay- men" – fonetik-bayoni tafovuti
7-bayt	Takror: ikki mar- ta kelgan (Vam- berida 7-bayt, devonda 7 va 10-baytlar alohi- da)	Vamberida bitta variant	Vamberi ikkinchi tak- rorini chiqarib yubor- gan
Maqta'	Isoni ko'p Navoiyning-u, yo'q uyotikim	Nevai hat der Sün- den viele, doch er- röthet er nicht	Tarjimada "uyot" tus- hunchasi "erröthen" (qizarish) orqali leksik jihatdan berilgan, lekin poetik jihatdan kuchsiz.

Qo'lyozma va devon orasidagi matnshunoslik masalalari

Yuqoridagi farqlar shuni ko'rsatadiki, Vamberining foydalangan manbasi tayanch devon versiyasidan farq qiluvchi manba bo'lgan. Bu esa bir nechta ilmiy muammolarni ochib beradi:

1. Vamberi tanqidiy matn emas, amaliy lingvistik namuna sifatida matn tanlagan.

2. Ba'zi baytlar ehtimol tarjima qiyinligi yoki tahririy sabablarga ko'ra tushirib qoldirilgan.

3. Leksik o'zgarishlar (mahol/tahall, hol, yangaymen, o'l-masa) asarning semantik chuqurligini yo'qotgan.

Shu bois, bu g'azalning to'liq tahlili faqat Vamberi nusxasi emas, balki asliyat – asos devon asosida olib borilgandagina, Alisher Navoiyning diniy-irfoniy g'oyalar tizimi, she'riy strukturasi va poetik ifodasi to'liq idrok etiladi.

Alisher Navoiyning Vamberi xrestomatiyasiga kiritilgan ushbu g'azali tasavvufiy-didaktik xarakterdagi misralar bilan boyitilgan she'riy namunadir. G'azalda yor, ya'ni ilohiy jamol manbai, go'zallik, najot, ma'naviy mukammallik timsoli sifatida tasvirlanadi. Ushbu g'azal o'z strukturasi bilan ham alohida ahamiyat kasb etadi: har bir bayt keyingisiga sabab-natija shaklida ulanib boradi va zanjirli tashbehlar tizimi hosil qiladi. Bu holat uni musalsal g'azal sifatida baholashga asos bo'ladi.

Bayt 1:

*Yordin ayru ko'ngul mulkedurur sultoni yo'q,
Mulkkim sultoni yo'q, jismedururkim, joni yo'q.*

Vamberi tarjimasi: *Entfernt von der Theuren ist das Herz
gleich einem Lande ohne König. Ein Land ohne König, ist wie ein*

Körper, der keine Seele hat.

Shoir muhabbatni, yorni, ko'ngil mulkining sultoni sifatida tasvirlaydi. Sultonsiz mulk qanday bo'lsa, yorsiz ko'ngil ham shunday – qarovsizlikda, befarqlikda, bo'sh. Vamberi ushbu baytni to'g'ri tushunib, semantik jihatdan aniq tarjima qilgan. “König” va “Seele” so'zlari o'z o'rnida ishlatilgan, lekin poetik ritm va ifoda ohangi saqlanmagan.

Bayt 2:

*Jismdin jonsiz ne hosil, ey musulmonlarkim, ul
Bir qaro tufroqdekdurkim, gul-u rayhoni yo'q.*

Vamberi: *Was nützt der unbeseelte Körper, o Muselmanen?
Denn er ist wie eine schwarze Erde, die keine duftenden Rosen hat.*

Navoiyning falsafiy mulohazasi jonsiz tananing hech qanday foydasi yo'qligi haqidagi ohang bilan davom etadi. Shoir bu tanani “qora tuproq” deb obrazlashtiradi. Nemis tilida bu bayt mantiqan yaxshi tarjima qilingan, ammo “gul-u rayhon” (ya'ni nafis hid, go'zallik, hayot zavqi) obrazining chuqurligi soddalashtirilgan.

Bayt 3:

*Bir qaro tufroqkim, yo'qtur gul-u rayhoni anga,
Ul qarong'u kechadekdurkim mohi toboni yo'q.*

Vamberi: *Schwarze Erde, die keine wohlduftenden Rosen hat,
Gleicht einer finstern Nacht, die keine strahlenden Monde hat.*

Bu baytda g'am, firoq holati “qora tuproq”ning “mahtabsiz tun”ga qiyoslanadi. Shoir bu orqali yor nurlarini yo'qotgan, hayot zavqidan mosuvo holatni bildiradi. Vamberining “finstere Nacht... ohne Monde” shaklidagi tarjimasi soddalashtirilgan, lekin ifoda qisman saqlangan.

Bayt 4–5:

*Ul qarong'u kechakim, yo'qtur mohi toboni anga,
Zulmatedurkim anin sarchashmay hayvoni yo'q.
Zulmatekim, chashmayi hayvoni oning bo'lmag'ay
Do'zaxedurkim, yonida ravzayi rizvoni yo'q.*

Vamberi: *Eine finstere Nacht, die keine strahlenden Monde hat,
Gleicht der Finsterniss, die keine Lebensquelle hat. Eine Finsterniss, die
keine Lebensquelle hat, Gleich der Hölle, die keine Paradiesesfluren
hat.*

Bu ikki baytda Navoiy abstrakt zanjirli ramzlar tizimini barpo etadi:

- Yor yo'qligi → firoq → zulmat → do'zax → rizvondan uzoqlik.

- "Chashmayi hayvon" – hayot manbasi, tiriklik.
- "Ravzayi rizvoniy" – jannat, ma'naviy rohat.

Vamberining tarjimasida bu mantiqiy tizimni tushunib bergan bo'lsa-da, so'zlar orasidagi metaforik dinamika va poetik assonans yo'qolgan.

Maqta' bayt:

*Ey Navoiy, bor anga mundoq uqubatlarki, bor
Hajrdin dardi va lekin vasldin darmon yo'q.*

Vamberi: *O Nevai, da die Theuren so viele Qualen geben, So ist es gewiss, dass die Trennung ihre Schmerzen, das Wiedersehen aber keine Hilfe hat.*

G'azal yakunida shoir yana ziddiyatli ruhiy holatga murojaat qiladi: yor vasliga yetishish davo emas, balki dardga dard qo'shuvchi holatdir. Bu sufiyona fikr, ilohiy jamolga oshuftalikdan kelib chiqadigan ruhiy iztirob, Vamberida "Wiedersehen... keine Hilfe" deb tarjima qilingan.

Voqeband g'azal va tarjima imkoniyatlari

Mazkur g'azal o'zining logik-kompozitsion zanjiri, tash-behlarning ketma-ket chuqurlashuvi, va so'fiy ramzlar bilan boyligi orqali Navoiyning yetuk badiiy tafakkurini namoyon etadi. Har bir bayt keyingisiga sabab bo'lib xizmat qiladi. Bu "zanjirli g'azal" namunasi, tasavvufdagi nisbatlar va sababiyatlar asosidagi tuzilishiga mos keladi. Vamberining tarjimasida bu mantiqni tushunishga yordam beradi, ammo poetik ifoda, ohang, tajnis va ramziy chuqurlikni yetarlicha bermaydi.

Mazkur g'azal Navoiyning "G'aroyib us-sig'ar" devonidagi 310-g'azal bo'lib, jami 7 baytdan tashkil topgan. G'azalning har bir bayti "yo'q" radifi bilan yakunlanadi. Vamberi ushbu g'azaldan 6 baytni (12 misra) xrestomatiyasiga kiritgan. Quyidagi muhim farqlar aniqlangan:

1. Baytlar soni va strukturaviy tafavut

Tartib	G'aroyib us-sig'ar (asl)	Vamberi nusxasi	Holat
Bayt 1-5	To'liq	To'liq	Mos
Bayt 6	Tushirib qoldirilgan:	Yo'q	Begona bayt chiqarib tashlangan
Bayt 7	To'liq	Maqta' sifatida keltirilgan	Qisman mos

Bu yerda **6-bayt** – g'azalning mazmuniy burilishini aks ettiruvchi muhim mantiqiy halqa bo'lib, uni chiqarib tashlash zanjirli

tashbehlar ketma-ketligini buzadi.

*Do'zax ekim, ravzayi rizvondin o'lg'ay noumid,
Bir xumoredurki, anda mastliq imkoni yo'q.*

Bu bayt ilohiy visoldan mahrum qalb holatini do'zaxdagi sarobli, mastliksiz, ilohiy ishqdan uzilgan odam sifatida ifodalaydi. "Mastliq imkoni yo'q" sufiyona komil holatga yetishning imkonsizligi haqida nozik ishoradir.

2. Leksik-fonetik tafovutlar

Bayt	Asl matn (devon)	Vamberi nusxasi	Farq xususiyati
2	<i>Bir qaro tufro-qdekdurkim, gul-u rayhoni yo'q</i>	<i>...die keine duf-tenden Rosen hat</i>	"Gul-u rayhon" → "duftende Rosen" – semantik soddalashtirish
3	<i>Ul qarong'u ke-cha dekdurkim mohi toboni yo'q</i>	<i>...die keine strahlenden Monde hat</i>	"Mohi tobon" → "strahlende Monde" – obrazni tushunarli qilingan, lekin estetika yo'q
5	<i>Do'zaxdurkim, yonida ravzayi rizvoni yo'q</i>	<i>...die keine Paradiesesfluren hat</i>	"Ravzayi rizvon" → "Paradiesesfluren" – g'arblik o'quvchiga moslashtirilgan

Bu o'rinda Vamberi tarjimasida tasavvufiy-islomiy atamalar ("chashmai hayvon", "ravzayi rizvon", "xumore", "mastliq") yoki umuman olib tashlangan, yoki soddalashtirilgan. Natijada G'arb filologiyasi uchun tushunarli leksika tanlangan, ammo estetik qatlam va madaniy semantika boy berilgan.

Matn variantlari orqali poetik zanjirning buzilishi

Ushbu g'azalda Navoiyning absolyut negaivlik radifi ("yo'q") asosida ilohiy haqiqatga yo'l qidirgan tasavvufiy pozitsiyasi aks etadi. Har bir bayt o'z oldingisidan ma'no jihatdan kelib chiqadi. Vamberi tomonidan 6-baytning tushirilishi bu kompozitsion zanjirni to'xtatadi va g'azalning ruhiy-mistik chuqurligini sezilarli darajada pasaytiradi.

Maqta' bayti:

*Ey Navoiy, bor anga mundoq uqubatlarki bor,
Hajrdin dardi, vale vasldin darmon yo'q.*

Bu yakuniy xulosa – tasavvufiy paradoks: "dard bor, ammo davo yo'q", ya'ni yor visoli ham davo emas, balki ruhiy uqubatning davomidir.

Alisher Navoiyning "Ey, hamd o'lub mahol fasohat bila sanga" bayti bilan boshlanuvchi g'azali "Badoye' ul-bidoya" va "G'aroyib us-sig'ar" devonlarida uchraydi va bu ikki manbada baytlar tartibi va matn tarkibida ayrim tahririy o'zgarishlar mavjud. Tadqiqotchilar fikricha, "Badoye' ul-bidoya"dagi dastlabki ko'rinishida g'azal baytlar tartibi va semantik og'ishlar sababli yetarlicha mukammallikka ega emas. "G'aroyib us-sig'ar" devoniga tahrir qilinar ekan, shoir baytlar o'rnini almashtirish, leksik birliklarni aniqlashtirish va ma'nodagi izchillikni ta'minlash orqali g'azalning shakliy va mazmuniy yaxlitligini kuchaytirgan.

Masalan:

- "Yetmak xayol aql-u farosat bila sanga" (Badoye'da) → "Yetmak mahol..." (G'aroyibda): bu almashuv shoirning ilohiy haqiqatga yetishishdagi ojizligini kuchliroq ifodalovchi vositaga aylangan.
- 9-baytning 7-bayt o'rniga o'tkazilishi (va maqtaning oxiriga joylashtirilishi) – g'azalda tavba → xijolat → rajo motivlarining tadrijiy rivojlanishini ta'minlagan.

Mualliflarning ta'kidlashicha, g'azalda baytlar mavzular bo'yicha guruhlarga birlashgan, bu esa uni "parokanda" deb emas, mazmuniy uyg'unlikka ega zanjirli g'azal deb baholash imkonini beradi. Shoir baytlar ketma-ketligini ijodiy muvozanat asosida belgilagan bo'lib, bu matn tahriri orqali estetik mukammallikka erishish amaliyoti namunasidir. Shu sababli g'azal baytlarining kompozitsion tahlili Navoiyning she'riy tafakkuridagi aniqlik, talabchanlik va shakliy uyg'unlikka bo'lgan intilishini ko'rsatadi. G'azal poetikasidagi bu yondashuv mustaqil baytlardan iborat parokanda matn emas, balki semantik bosqichma-bosqich rivojlanadigan lirik ifoda namunasidir.

Xulosa

Hermann Vamberining "Cagataische Sprachstudien" kitobidagi Alisher Navoiy g'azallari tahlili bir necha muhim xulosalarni beradi:

Birinchidan, Vamberi tomonidan taqdim etilgan chig'atoycha matnlar muayyan darajada asosiy devoniy manbalar bilan muvofiq keladi, biroq ayrim baytlarning tushirib qoldirilishi, so'z shakllarining farqlanishi ("markidin" – "markabidan", "o'zga" – "yerda") hamda baytlar tartibidagi o'zgarishlar uning manba sifatida ehtiyotkorlik bilan ishlatilishini talab etadi. Bu farqlar, bir tomondan, matnni ko'chirish jarayonida yuzaga kelgan bo'lsa, ikkinchi

tomondan, Vamberining o'zi tomonidan qisqartirishlar bilan bog'liq bo'lishi ehtimoli mavjud.

Ikkinchidan, Vamberining nemis tilidagi tarjimalari asosiy mazmuni saqlab qolgan, ammo poetik ohang va metaforik qatlamlarning boyligini to'liq aks ettira olmagan. Xususan, birinchi g'azalda ("Ey ko'ngul, kelkim ikov bo'lub nigore ko'zlali") sadoqat va inkor-tasdiq kompozitsiyasiga asoslangan poetik tuzilma tarjimada yetarli darajada aks etmagan.

Uchinchidan, "Ey, hamd o'lub mahol fashat bila sanga" g'azali yuzasidan Olimlar tomonidan olib borilgan chuqur matnshunoslik tahlillari [Eshonqulov, Hazidov, 2022] ushbu g'azalning Alisher Navoiy tomonidan qayta tahrirlanganini bildiradi. "Badoye' ul-bidoya" va "G'aroyib us-sig'ar" dagi variantlar o'rtasidagi baytlar joylashuvi, ayrim so'zlarning almashtirilishi g'azal kompozitsiyasining mazmuniy yaxlitligini kuchaytirishga xizmat qilgan.

To'rtinchidan, uchinchi g'azalda "yo'q" radifining ritmik takrorlari orqali tuzilgan falsafiy tashbehlar (zulmat, do'zax, tuproq) g'azalning umumiy ma'naviy kayfiyatini belgilaydi. Vamberi bu radiflarning falsafiy-kompozitsion yukini tarjimada ancha soddalashtirgan.

Umuman olganda, "Cagataische Sprachstudien" dagi Navoiy g'azallari haqida olib borilgan mazkur qiyosiy tahlil matnshunoslik, tarjimashunoslik va poetika nuqtayi nazaridan Vamberining xizmatlarini baholashda asosli ilmiy mezonlarni yuzaga chiqaradi.

Adabiyotlar

- Davirova, V. 2025. "O'zbek xalq maqollarining o'zbek va xorij olimlari tomonidan o'rganilish tarixi". *Hamkor konferensiyalar*, 1(18), 342 -350.
- Komilov, N. 2016. Xurshid Davron kutubxonasi. "Ahd qildim ishq lafzin..." Alisher Navoiy g'azaliga sharh. URL: <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/najmiddin-komilov-ahd-qildim-ishq-lafzin-alisher-navoiy-gazaliga-sharh.html>(murojaat sanasi: 15.04.2025)
- Karimov, B. N. 2021. "Herman Vamberi - mumtoz adabiyot tadqiqotchisi". *O'zbekiston: til va madaniyat* 3: 17 - 29.
- Roviyajon, A. 2007. "G'arb olimlari Navoiy va Bobur ijodi haqida". *Özbek Dili ve Edabiyati Dergisi*, 1: 40 - 45.
- Tojiboyeva, O. T. 2023. "Ilk xrestomatiyalarda Alisher Navoiy ijodidan parchalar". *O'zbekistonda xorijiy tillar* 6 (53): 287 - 296.
- Zahiriddin Muhammad Bobur. 2023. *Boburnoma*. Toshkent: O'zbekiston.
- Vambery, H. 1861. *Abuschka. tschagataisches Wörterbuch, aus orientalischen Handschriften ediert und übersetzt*. Pest.
- Vambery, H. 1867. *Cagataische Sprachstudien*. Leipzig: F.A. Brockhaus.

A Review of Alisher Navai's Ghazals in Herman Vámbéry's "Cagataische Sprachstudien" Chrestomathy

Sherzod Qodirov¹

Abstract

This article analyzes the texts and translations of Alisher Navoi's ghazals presented in the chrestomathy section of *Cagataische Sprachstudien* by Hermann Vámbéry, a work that occupies an important place in the history of Oriental studies. The study examines, from a scholarly perspective, Vámbéry's method of presenting the ghazals in Chagatai, their translation into German, as well as the poetic expression and semantic divergences. Particular attention is paid to issues of semantic shifts in the translations and to whether the poetic structure is preserved or disrupted. In addition, the texts included in Vámbéry's chrestomathy are compared with various editions of Navoi's divans; the differences are identified, and concrete evidence is provided concerning the question of authorial and editorial intervention.

Key words: *ghazal, translation, chrestomathy, poetics, semantics, oriental studies, German annotations, textual studies.*

References

- Davirova, V. 2025. "O'zbek xalq maqollarining o'zbek va xorij olimlari tomonidan o'rganilish tarixi". *Hamkor konferensiyalar*, 1(18), 342–350.
- Komilov, N. 2016. Xurshid Davron kutubxonasi. "Ahd qildim ishq lafzin..." Alisher Navoiy g'azaliga sharh. URL: <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/najmiddin-komilov-ahd-qildim-ishq-lafzin-alisher-navoiy-gazaliga-sharh.html> (murojaat sanasi: 15.04.2025)
- Karimov, B. N. 2021. "Herman Vamberi – mumtoz adabiyot tadqiqotchisi". *O'zbekiston: til va madaniyat* 3: 17 – 29.
- Roviyajon, A. 2007. "G'arb olimlari Navoiy va Bobur ijodi haqida". *Özbek Dili ve Edabiyati Dergisi*, 1: 40 – 45.
- Tojiboyeva, O. T. 2023. "Ilk xrestomatiyalarda Alisher Navoiy ijodidan parchalar". *O'zbekistonda xorijiy tillar* 6 (53): 287 – 296.
- Zahiriddin Muhammad Bobur. 2023. *Boburnoma*. Toshkent: O'zbekiston.
- Vambéry, H. 1861. *Abuschka. tschagataisches Wörterbuch, aus orientalischen Handschriften ediert und übersetzt*. Pest.
- Vambéry, H. 1867. *Cagataische Sprachstudien*. Leipzig: F.A. Brockhaus.

¹ Qodirov Sherzod – PhD Candidate, Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature.

E-mail: kadirov1007@mail.ru

ORCID ID: 0009-0006-4523-7142

For citation: Qodirov, Sh. 2025. "A Review of Alisher Navai's Ghazals in Herman Vámbéry's "Cagataische Sprachstudien" Chrestomathy". *Golden Scripts* 3: 66 – 81.